

Ismailova Guzal Fayzullayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
guzalismailova545@gmail.com

UDK 37.02

TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM ORQALI KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarida mustaqil ta'lim orqali kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, mashg'ulot jarayonlarida mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirish parametrlari haqida nazariy bilimlarni berish orqali bo'lajak mutaxassislarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ular bilan individual shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirishga erishish lozimligi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, bilimlar iqtisodiyoti, harakatlar strategiyasi, fanlararo integratsiya, mustaqil ta'lim tizimi, kasbga yo'naltirilgan ta'lim.

Исмаилова Гузал Файзуллаевна
Базовый докторант Навоийского государственного педагогического
института
guzalismailova545@gmail.com

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ

Аннотация. В данной научной статье рассматривается формирование профессиональной компетентности студентов высшего учебного заведения посредством самостоятельного обучения, формирование практических навыков и компетенций у будущих специалистов путем предоставления теоретических знаний о параметрах формирования самостоятельной учебной деятельности в учебных процессах, индивидуальной вовлеченности. С ними речь идет о необходимости расширить возможности обучения, добиться формирования их самостоятельной учебной деятельности.

Ключевые слова: человеческий капитал, экономика знаний, стратегия действий, междисциплинарная интеграция, независимая система образования, профессиональное образование.

Ismailova Guzal Fayzullayevna
PhD student of Navoi State Pedagogical institute
guzalismailova545@gmail.com

CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE THROUGH INDEPENDENT EDUCATION IN STUDENTS

Abstract: This scientific article examines the formation of professional competence of students of a higher educational institution through independent learning, the formation of practical skills and competencies among future specialists by providing theoretical knowledge about the parameters of the formation of independent learning activities in educational processes, individual involvement. With them we are talking about the need to expand learning opportunities and achieve the formation of their independent learning activities.

Key words: human capital, knowledge economy, action strategy, interdisciplinary integration, independent education system, vocational education.

Kirish

Bugungi kunda davr talabi asosida respublikamiz iqtisodiyotidagi hozirgi tendentsiyalar, yuqori malakali "inson kapitali" asosiy resursga aylangan "bilimlar iqtisodiyoti"ning rivojlanishi oliy ta'limining yangi sifatiga erishishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan ta'limning roli sezilarli darajada ortmoqda va ta'limda innovatsion yondashuvlar tobora ommalashib bormoqda, bunda asosiy e'tibor talaba tomonidan nafaqat ma'lum miqdordagi bilim va ko'nikmalarni olishga, balki tizimli to'plamni shakllantirishga ham qaratilgan. Inson faoliyatining turli sohalari - iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axborot va boshqa muammo va vazifalarni hal qilish qobiliyati kompetensiyalarda namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonining shakli, lekin uning asosi, kasbiy mustaqillikni, bilimlarni tez yangilash sharoitida o'z-o'zini tarbiyalashga va uzluksiz o'rganishga tayyorlikni shakllantirish usuli bo'lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili.

Shundan kelib chiqib, zamonaviy sharoitlarda innovatsiya yutuqlaridan keng foydalanish davlat va jamiyat hayotining turli sohaslarini rivojlantirish, mamlakatning munosib kelajagini barpo etish muhim omillardan biri sanaladi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan tezkor davrda jamiyatimiz uchun faol fikrlovchi, innovatsion g'oyalarni mustaqil yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llovchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Erkin ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, ushbu talablarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga

qodir ta'lim tizimi zarur. Shu sababli oliy ta'lim tizimiga mamlakat taraqqiyoti sohasidagi eng asosiy ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgani shubhasiz.

Zamonaviy rivojlanish zamonida ta'lim inson omiliga sarflanuvchi sarmoya hisoblanib, jamiyat esa, bundan har tomonlama manfaatdordir. Zero, oliy ta'lim sifat darajasining yuksalishi mamlakat uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, mehnat unumdorligini oshishiga xizmat qiladi, ijtimoiy muammolarning oqilona yechimlarini topib, pirovard natijada mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi mavqeyini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va unda mustaqil ta'limning tutgan o'rni haqida quyida fikr yuritamiz.

Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodologiyasining nazariy asoslarini aniqlash muammosi zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarning dolzarb vazifasidir[1]. Uning dolzarbligi qator omillar, jumladan, jahon va mahalliy ta'lim tizimining inqirozi, uning zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda yetarlicha samara bermaganligi bilan bog'liq; mamlakatimiz ta'lim tizimining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ta'limni takomillashtirishda mamlakatimizni 2017-2021-yillardagi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yichaning Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan strategiyasi oliy ta'lim maqsadlarini belgilash sohasida kompetentlik, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning kontseptual tarzda ishlab chiqilmaganligi, uni amalga oshirishda yaxlit tajribaning yo'qligi, oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlari allaqachon kompetentlik tilida shakllantirilgan. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy tajribalar hamda ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5847-sonli

Farmoni qabul qilinganligi mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir[2].

Tadqiqot metodologiyasi.

Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan barcha islohotlar talaba-yoshlarni mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, individual ta'lim traektoriyasini belgilashga, ularda tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu vazifalarni oliy ta'lim muassasalarida bosqichma-bosqich amalga oshirish rejalashtirilgan.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimi muammosini hal etishning muvaffaqiyati strategiyani va uni amalga oshirish metodikasini uslubiy asoslash sifati bilan belgilanadi. Pedagogik metodologiya - nazariyaning asoslari va tuzilishi haqidagi bilimlar tizimi bo'lib, yangi bilimlarni olish yo'llarini belgilaydi, o'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumot olishni ta'minlaydi[3]. Muayyan pedagogik nazariya tushunchalarini mustaqil ta'lim soatlari ulushining kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida talabalarda fanlararo integratsiyalash ko'nikmalarini shakllanmaganligi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodika va ta'lim texnologiyalarni joriy etish bugungi kun talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar sifatida qaraladi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda mavjud oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislar o'quv rejasi va dasturlarida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, intellektual, o'quv jarayonida kasbiy, tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodika va ta'lim texnologiyalarni keng joriy qilish, o'quv jarayonining asosiy qismini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish hamda ularni amalga oshirishda ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalardan, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallardan keng foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning fanlararo integratsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida qaraladi. Shu bois, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida “Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi,”-deb belgilab qo'yilganligini keltirib o'tish mumkin[4].

Oliy ta'lim muassasa talabalarining kasbiy kompetensiyani shakllantirish modelini amalga oshirish uchun kasbiy tayyorgarlik quyidagilarni nazarda tutadi: ta'lim va fan bilan bog'liq faoliyat orqali shaxsiy yo'naltirilgan kasbiy vaziyatni yaratish imkoniyatlarini aniqlash; materialni kontekstualashtirish, dialoglashtirish va o'ynash usullaridan foydalanish; shaxsiy yo'naltirilgan professional vaziyat uchun rejaning mavjudligi; o'rganilayotgan materialning kasbiy va qimmatli tomonlarini yangilash, ularni faoliyat-kommunikativ shaklga o'tkazish qobiliyatidir[5]. Talaba ta'lim tizimida faoliyat-kommunikativ shakl olishda internet va boshqa zamonaviy axborot manbalarining o'rni va ahamiyati yuqoridir.

Jamiyatimizda uchraydigan ayrim muammolar va o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ta'lim jarayoniga to'la moslashishlari uchun to'siq bo'lmoqda. Bugungi kunda nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarga ega, yangilik va o'zgarishlarga moslashuvchan, erkin fikrlayoladigan, kasbiy va shaxsiy muammolarini mustaqil hal qilaoladigan mutaxassis kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimiz oliy ta'lim muassalari talabalaridan har tomonlama bilimdonlikni, mustaqil fikrlay oladigan, fanlarni chuqur o'zlashtirish qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab qilmoqda. Bunday talablarning bajarilishi, ularni butun hayoti davomida bilim olishga, kasb-hunarni egallashga o'rgatish orqali ta'minlanadi.

Muhokama.

Talabalar o'rtasidagi ijtimoiy tashkil etilgan o'zaro ta'sir va munosabatlarning ana shu turi ma'nolar, maqsad va faoliyat usullari jamoasining vujudga kelishidan yagona semantik sohani rivojlantirishgacha bo'lgan harakatni shakllantiradi; kognitiv va kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida ongli o'z-o'zini tartibga solishni

shakllantirish uchun rag'batlantiruvchi asosdir. Fanlararo integratsiya - o'rganish va kasbiy faoliyatning umumlashtirilgan va ongli usullari, shuningdek, o'zaro ta'sir va aloqa normalaridir[6]. Ta'limning bunday tashkil etilishi bilan talabanning o'z faoliyatini tartibga solish holati oldingi ijtimoiy rivojlanishdan o'rganilgan me'yorlar va usullar asosida birlamchi, boshlang'ich holatdan o'z faoliyatini kasbiy normalar va usullar bilan tartibga solish holatiga qadar shakllanadi. Talabani shakllanayotgan mutaxassis lavozimiga o'tkazishning asosiy uslubiy usuli bu professional pozitsiyani aniqlash - hatto birinchi kurs talabasiga nisbatan ham professional pozitsiyasini egallashga undaydigan harakatlardir.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich shakllantirish tizimiga o'tkazish talabalarning mustaqil ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyalash qobiliyatlarini shakllantirish muammosining yechimi sifatida qarash mumkin. Mustaqil ta'lim tizimini tashkil etish jarayoni o'qitishning ta'lim texnologiyalari yig'indisi asosida baholashning modeli hisoblanadi. Ushbu tizimni bir butunlikda olib borish, ko'p vazifali va murakkab tizimli jarayon bo'lib, asosiy masala talabalarning kasbiy kompetensiyaga qaratiladi[7].

Talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish kontseptsiyasi pedagogik tamoyillar tizimiga asoslanib, fanlar tomonidan belgilangan qonuniyatlardan kelib chiqadigan va maqsad, mazmun, ta'lim texnologiyalarida amalga oshiriladigan boshlang'ich nazariy tamoyillardir.

Xulosa.

Talabalarda mustaqil ta'lim orqali kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyillari tizimi quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) oliy ta'lim muassasasida ta'limning umumiy didaktik tamoyillari;
- b) fanlararo integratsiyalashgan mustaqil ta'lim tamoyillari;
- v) kasbga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiya talaba faoliyatida mustaqil ta'lim olish mexanizmlari yordamida amalga oshirilishini yo'lga qo'yish va talabanning vakolati shaklida namoyon bo'ladigan faoliyat muvaffaqiyatini belgilaydi. Mustaqil ta'lim

olish, muayyan vaziyatda kasbiy kompetensiya faoliyati bo'lib, amalga oshirilishi va faoliyat natijasini muvaffaqiyatini samarasini ko'tarish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001yil 16 avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-son qarori

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnomasi SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари № 4 (3)-2023 йил 289

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019yil "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PK-5812-sonli qarori. - <https://lex.uz/docs/4500926>

4. Захарова Е.В. Организация самостоятельной работы студентов с использованием информационно- коммуникационных технологий: на примере иностранного языка: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. Якутск, 2008.

5. Irwin, S.D. (2012). Using E-Learning for Student Sustainability Literacy: Framework and Review. IJSHE

6. Ismailova G.F. "Mustaqil ta'lim olishda integratsion metodlarni takomillashtirish" Til va adabiyot.uz 2023-yil 8-son.

7. Ismailova G.F. "Pedagogika oliy o'quv yurti chet tili yo'nalishi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda tizimli yondashuvlar" SCIENCEPROBLEMS.UZ-Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № 4 (3)-2023 йил